XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBITR(LAR)NI TANLASH YOKI TAYINLASH HAMDA RAD ETISH MASALALARI

Xazratqulova Jasmina Nuriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro tijorat arbitrajida arbitrlarning qanday qilib tanlanishi yoki tayinlashi va rad etilishi tartib-taomillarini xalqaro konvensiyalar, milliy tijorat to'g'risidagi qonunlar, institutsional arbitraj qoidalari hamda hozirgi xalqaro amaliyot misolida tahlil etib, yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Arbitraj kelishuvi, taraflar, arbitral protsess, taraflar avtonomiyasi, institutsional arbitraj, arbitraj tribunal, milliy sudlar, institutsional qoidalar, defolt qoidalar, institutning tayinlash ma'muriyati.

I.Kirish. Xalqaro tijorat arbitrajida arbitrni tanlash

Xalqaro tijorat arbitrajida muayyan nizoni hal etish uchun taraflarning arbitraj kelishuvi(arbitration clause) asos bo'ladi. Ushbu bitm taraflarning o'zaro tijoriy shartnomasida bir band sifatida keltirib o'tilishi, yoki alohida bir shartnoma sifatida kelishilishi ham mumkin. Arbitraj kelishuvining mavjudligi arbitrajning ushbu nizoni hal etishga vakolati borligini belgilab beradi hamda arbitral protsessni boshlab beradi. Arbitral protsessning eng muhim, yagona, birinchi qilinadigan ishi taraflarning arbitrni tanlash masalasi hisoblanadi.[1] Taraflar arbitrni arbitraj kelishuvida belgilangan qoidalar asosida tanlaydi, agar bunday qoidalar kelishilmagan bo'lsa, institutsional arbitrajning qoidalari asosida amalga oshirishi mumkin.

Biz bilamizki, arbitraj huquqiy tabiati bilan boshqa nizoni hal etish usullaridan kelishuvga asoslanganligi hamda erkinligi bilan farq qiladi. Arbitrning tarflar tomonidan tanlanishi ham shu fundamentdan kelib chiqqan, ya'ni taraflar nizoni hal etish uchun davlat sudlariga murojaat qilsa, u yerda ularning ishini kim olib borishini bilmaydi hamda sudyani tanlash huquqiga ega emas. Xuddi shunday farqli jihatlar xalqaro tribunallarda ham mavjud emas(masalan, ICJ-Xalqaro adolat sudi). Xalqaro arbitraj konvensiyalari, milliy arbitraj qonunlari hamda institutsional arbitraj qoidalari arbitrni tanlashni taraflarni o'ziga qoldiradi. Bunda taraflar o'zlarining arbitraj bitimida arbitrni tanlash hamda bunday arbitrlarni tanlash bo'yicha bilvosita tartib-qoidalarni belgilab qo'yishi mumkin. Bunga misol qilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki yuzaga kelgan nizoga nisbatan maxsus til qobilyatiga, bilim hamda ko'nikma, tajribaga ega bo'lgan arbitr(lar)ni oldindan aniq tanlab qo'yish(ya'ni ismi bilan, masalan, arbitr Tom Adell) yoki arbitrni tanlashda muayyan talablar qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari arbitrni tanlash bo'yicha protsessual tartib ham taraflar tomonidan arbitraj kelishuvida kelishilgan bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib, ma'lum bir tarafning o'zi tanlagan arbitrini boshqa tarafga yozma xabarnoma orqali ma'lum bir muddatda yuborishi, ikkinchi tarafning tanlangan arbitrga nisbatan javobini bildirishi muddatlari ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Agar bunday qoidalar shartnomada belgilanmagan bo'lsa, arbitrni tanlash institutsional arbitraj qoidalari asosida amalga oshiriladi.

[1] W. Reisman et al., International Commercial Arbitration 576 (2015).

Arbitrni tanlashda taraflar, ularni tayinlashda esa institutsional arbitrajning ma’muriyati yoki milliy sudlar ishtirok etadi. Arbitrni tanlash bir tarafning tanlangan arbitrni belgilangan muddatda ikkinchi tarafga yozma ravishda xabar qilishdan boshlanadi. Ikkinchi taraf qabul qilsa, arbitr tayinlangan hisoblanadi. Albatta, arbitrning ushbu ishni rad etish huquqi saqlanib qoladi. Agar shartnomada kelishilgan muddatlar mavjud bo’lmasa yoki bir taraf tanlangan arbitrni rad etsa, ish to’xtatiladi. Bunday holatda the UNCITRAL Model law ga ko’ra, bir taraf arbitrni tanlashda institutsional qoidalarda belgilangan vaqt o’tganidan keyin qarshi taraf bilan kelishuvga erisholmaganligini keltirib, institutsional arbitraj ma’muriyatidan arbitrni tayinlab berishini so’rashga haqli. Bu bir qancha mashhur institutsional arbitraj qoidalarida ham bunday qoida keltirilgan bo’lib, ularga misol qilib ICC, SIAC, LCIA, AAA va boshqalarini aytishimiz mumkin. Bundan tashqari taraflar o’zlari arbitrni tanlashni xohlashmasa, bunday huquqni institutsional arbitrajning ma’muriyatiga topshirishi ham mumkin. Bu alohida xizmat bo’lib, institut qoidalari asosida arbitrni tayinlaydi hamda qo’shimcha haq talab etadi.[2]

Ba’zi bir institutsional arbitrajlarda arbitrni tayinlash biroz qat’iyroq bo’lib, ular nafaqat taraflarning arbitrlarni tanlashdagi keluviga erishganligini hisobga oladi, balki ushbu tanlangan arbitrni institutdan ham rasmiy tasdiqlatilishini talab etadi. Agar rasmiy tasdiqdan o’tmasa, arbitr tayinlangan hisoblanmaydi. Tasdiqlashda asosiy e’tiborga olinadigan jihatlar arbitrlarning mustaqilligi, ishga mosligi hamda ishni ko’ra olishi bilan bog’liq jihatlari bo’lib, ushbu faktlarni tasdiqlanishiga yetarlicha shubha bor deb hisoblasa, institut tanlangan arbitrni tasdiqlashni rad etishi mumkin.

Agar taraflar tribunalni tuzishda kelishuvga erisholmasa yoki bajarib bo’lmaydigan tartib-taomillarga kelishgan bo’lsa, bunday holatlar default hisoblanadi, ya’ni bunda taraflar ham arbitrni tanlashga kelisholmaydi, kelishgan taqdirda ham institutsional arbitraj ijro etolmaydi. Bunda arbirtni tayinlash milliy arbitraj qonunlariga asosan arbitr joylashgan davlat sudlari qo’liga o’tadi.

Tribunal muayyan bir ish ushun yagona arbitrdan iborat yoki hay’at tarkibida tuzilishi mumkin. Bu taraflarning xohish-irodasiga muvofiq tuziladi. Hay’atda 3ta, 5ta yoki undan ziyod toq miqdorli arbitrlar ish yuritadi.

II. Arbitrga nisbatan e’tiroz berish tartibi va uning oqibati

Agar bir tomon arbitrga e'tiroz bildirmoqchi bo'lsa, u buni darhol qilishi kerak. LCIA qoidalariga ko'ra, e’tiroz bildiruvchi taraf yozma bayonotini LCIA sudiga, e’tiroz bildirilayotgan arbitrga hamda boshqa arbitrlarga(agar tribunal hay’at tarkibida bo’lsa) va boshqa barcha tomonlarga e’tirozga asos bo’uvchi holat paydo bo’lgan kundan e’tiboran 15 kun ichida yuborishi kerakligini belgilab qo’yilgan. Bunday qoida ICC qoidalariga ko'ra, o'ttiz kunlik muddat etib belgilangan. Har ikkala holatda ham, agar arbitr ishdan voz kechishga qaror qilmasa, uni olib tashlash yoki olib tashlamaslik to'g'risidagi qarorni institutsional arbitrajning ma'muriy organi hal etadi. Agar institut tomonidan e’tiroz rad qilingan taqdirda, taraflarda ushbu ish yuzasidan davlat sudlariga murojaat qilish huquqi mavjud. Xuddi shu normani the UNCITRAL Model Law e’tirozni qanoatlantirishni rad etish to’g’risidagi xabarnomani qabul qilgan kundan keyin davlat sudiga murojaat qilish muddatini 30 kun sifatida belgilagan. Ammo sud qarori ustidan appelyatsiya berilishi mumkin emas.

[2] UNCITRAL, 2012 Digest of Case Law on the Model Law on International Commercial Arbitration 67 (2012).

O’zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida”gi qonuniga muvofiq, milliy sudlar arbitrni tayinlash va rad etish masalalarida ma’lum bir vakolatlarga ega. Bunga misol qilib, qonunning 18-moddasini keltirishimiz mumkin: “Agar taraflar tomonidan kelishilgan har qanday tartib-taomil yoki ushbu moddada nazarda tutilgan tartib-taomil qo‘llanilganda rad etish to‘g‘risidagi ariza qanoatlantirilmasa, rad etish haqida ariza bergan taraf rad etish to‘g‘risidagi qaror xususida bildirishnoma olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida sudga rad etishni qanoatlantirish haqida ariza berishi mumkin”. Ammo biz bilamizki, ushbu qonun faqatgina O’zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va faoliyat olib boradigan arbitraj muassasalari uchun qo’llaniladi.[3]

Arbitr ustidan bildirilgan e’tiroz muvaffaqiyatli yakunlasa, arbitr o’z xohishi bilan ishdan chiqadi yoki institut tomonidan ishdan ozod etiladi. Arbitrni ishdan chiqarishga erishildi, endi nima bo’ladi? Arbitrning o’rniga boshqa arbitr institut qoidalariga yoki ushbu masala taraflarning o’zaro kelishuvida belgilab qo’yilgan bo’lsa, o’sha kelishuv asosida ishga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

[1]. Gary B.Born, International Commericial Arbitration, the third edition, Chapter 12: Selection, Challenge and Replacement of Arbitrators in International Arbitration

[2]. Margaret L.Moses. The principles and practice of international commercial arbitration,2008,136-169-p

[3]. O’zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida”gi qonuni.11.09.2020

[3] https://lex.uz/docs/-5294106#-5295995